

**Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi va uning tizimida O'zbekiston
Respublikasi "2025–2026 yillarda mamlakatimizda qatag'on qurbonlari
hayoti va faoliyatini targ'ib etish ishlarini yana-da jadallashtirish bo'yicha
chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida"
2025-yil 4-noyabrdagi VMQ-691-son qarori ijrosi bo'yicha**

MA'LUMOTNOMA

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 4-noyabrdagi "2025-2026 yillarda mamlakatimizda qatag'on qurbonlari hayoti va faoliyatini targ'ib etish ishlarini yanada jadallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 691-son qarori ijrosi maqsadida Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligida belgilangan topshiriqlar ijrosi yuzasidan NAZORAT REJASI tasdiqlangan.

Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi xodimlariga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, keng ko'lamli islohotlarning mohiyati, qabul qilingan qonunchilik va davlat dasturlarining ahamiyatini tushuntirish, milliy g'oyamizning asosiy tushuncha va tamoyillarini, O'zbekistonda barpo etilayotgan zamonaviy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatining ma'naviy asoslarini chuqur o'rganish va keng targ'ib etish maqsadida "Ma'naviy hayot", "Tafakkur" va "Jadid" gazeta va jurnallariga yillik obuna bo'lingan.

Vazirlik va uning tizimida Qatag'on qurboni bo'lgan shaxslarning hayoti, faoliyati va ilmiy merosini aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilish maqsadida ma'naviy-ma'rifiy oyliklar o'tkazib borish tizimi joriy qilingan.

2025–2026 yillarda mamlakatimizda qatag'on qurbonlari hayoti va faoliyatini targ'ib etish ishlarini yanada jadallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturida belgilangan topshiriqlarni bajarish maqsadida vazirlik va uning tizimida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

**JADIDLAR ME'ROSINI O'RGANISHGA BAG'ISHLANGAN
ANJUMAN O'TKAZILDI**

Vazirlik tizimidagi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar univetsitetida **"Jadidlar: milliy o'zlikdan davlatchilik g'oyalari sari"** nomli ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi.

"Ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya" kafedrasidan tashkil etilgan mazkur tadbirda "O'zbek va chet tillar" kafedrasidan professor o'qituvchilari jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimizning qizg'in siyosiy va ijodiy

faoliyati xususida ma'ruza qilishdi. Muloqot davomida talabalarning ham jadidchilik borasidagi fikrlari tinglandi.





Bugungi kunda jadidlarning taqdir yo‘llarini chuqur va xolis o‘rganish, ilg‘or g‘oyalarini hayotga tatbiq etish, ayniqsa yoshlar orasida ma‘rifatparvarlikni keng yoyish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu ma‘noda, kon-geologiya sohasida bu borada turli ma‘rifiy tadbirlar tashkil etish davom etayapti.

Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi xodimlari orasida **“Jadidlar merosini o‘rganish” mavzusi ostida** vazirlik majlislar zalida ommaviy diktant tadbiri o‘tkazildi. Shuningdek, tadbir davomida vazirlik xodimlari “Erkin mavzuda ifodali she‘r o‘qish”, “O‘zbek xalq maqollarini aytish” kabi tanlovlarda ham ishtirok etdilar. Tadbir davomida eng faol va bilimdon ishtirokchilar g‘olib deb topilib, taqdirlandilar. Shuningdek, amalga oshirilgan ishlar vazirlik rasmiy web saytida hamda OAB sahifalarida keng yoritildi. <https://uza.uz/posts/794012>





Tadbirning asosiy maqsadi — ona tilimizning tarixiy ahamiyatini yoritish, davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish hamda xodimlar o‘rtasida qatag‘on qurboni bo‘lgan shaxslarning hayoti, faoliyati va ilmiy merosini yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib qilish, jadidchilarga hurmat tuyg‘usini mustahkamlashdan iborat.



MUZEY — TARIXIY XOTIRANI ASRASH YO‘LIDAGI MUHIM MA’NAVIY-MA’RIFIY MASKAN



Vazirlik tizimidagi NDKTU Agromuhandislik va kommunikatsion texnologiyalar fakultetining 1-kurs talabarlari Navoiy shahridagi **“Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyiga** tashrif buyurishdi. Ekskursiya davomida ular muzey fondida saqlanayotgan eksponatlar, arxiv hujjatlari va tarixiy manbalar bilan tanishib, yaqin o‘tmishimizda ajdodlarimiz boshiga tushgan og‘ir sinovlardan saboqlar olishdi.

2018-yildan buyon faoliyat olib borayotgan ushbu muzey Qizilqum hududida yashab, qatag‘onga uchragan ajdodlarimizning xotirasini abadiylashtirish, yosh avlodga tarixiy haqiqatlarni yetkazish yo‘lida muhim ma’naviy-ma’rifiy maskan sifatida xizmat qilmoqda.

Talabalar mavjud eksponatlar orqali xalqimizning mashaqqatli tarixini chuqurroq his etish, milliy qadriyatlar va mustaqillikning qadriga yetish, shuningdek, tarixiy xotirani asrab-avaylash zarurligini anglab yetmoqda.



Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan xalqimizning mashaqqatli tarixini chuqurroq his etish, milliy qadriyatlar va mustaqillikning qadriga yetish maqsadida taqdim etiladigan raqamli targ'ibot mahsulotlari – jadidchilik vakillarining hayoti, ijodiga bag'ishlangan targ'ibot-tashviqot materiallari vazirlik va tizimosti korxonalar ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida, rasmiy veb-saytlarida muntazam ravishda keng yoritib borilmoqda.

Vazirlik va tizimdagi korxonalar rasmiy sahifalaridagi havolalardan namina:

Ajdodlar ruhi






O'tgan asr boshlarida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealar tarix maydoniga yangicha fikrlovchi ziyolilar qatlamini olib chiqdi. Jadidlar millat erki, vatan istiqloli uchun har doim dadil harakat qildilar. Bu yo'lda o'zlarining jonlarini ayamadilar. Tahlikali zamonning yana bir arslonyurak vakili: tilshunos olim, mohir pedagog, teatr bilimdoni, o'tkir jurnalist Qayum Ramazon edi...





<https://youtu.be/ccbheLt5lhs?si=1MCoVSWV6CDNKedy>



Shuningdek vazirlikning davlat tili hamda ma'naviyat va ma'rifat masalalari bo'yicha rasmiy TG sahifalarida **#mutolaa_zavqi bo'limi ochilgan** bo'lib, ushbu sahifalarda vazirlikning ishchi va xodimlariga muntazam ravishda mutolaa qilish uchun adabiy asarlar, ilmiy-ommabop kitoblar, **Turkiston jadidlik harakati haqida ilmiy maqolalar, tarjimalar, jadidlar asarlari** tavsiya qilinadi.


<https://t.me/DGQmatbuotkotibi/7277>, <https://t.me/DGQmatbuotkotibi/7268>

Shuningdek, kelgusida vazirlik tizimida faol kitobxonlarni rag'batlantirish doirasida tanlovlar o'tkazish ham rejalashtirilgan.

#mutolaa_zavqi

Ishchi-hodimlarga mutolaa qilish uchun vazirlikning davlat tili hamda ma'naviyat va ma'rifat masalalari bo'yicha rasmiy TG sahifalarida Shukrulloning **“Kafansiz ko'milganlar”** – asari tavsiya qilingan.

Ma'lumot uchun: **“Kafansiz ko'milganlar”** – O'zbekiston xalq shoiri va taniqli yozuvchi Shukrullo tomonidan yozilgan avtobiografik asar, 1951-yildagi qatag'onlik davri, Sibir surguni va sho'ro lagerlaridagi azob-uqubatlarni ko'rsatib beruvchi tarixiy asardir. Asar tuhmat bilan qamalgan ziyolilarning fojiali taqdiri, inson ruhiyatining murakkabligi va adolat izlanishi haqida hikoya qiladi.



#Mutolaa_vaqti

Mutolaa vaqti keld!

Sizlarni Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tashkil etilgan "Mutolaa" loyihasida faol bo'lishingiz va mutolaa ilovasidan foydalanishingizni tavsiya qilamiz!

Mutolaa - o'zbek tilidagi eng sara elektron va audiokitoblar jamlangan ilova.

👉 [Mutolaa ilovasi](#)

👁 271 изменено 16:43

Tog' kon sanoati va geologiya vazirligining ma'na...



#mutolaa_zavqi

Hurmatli hamkasblar.

Sizlarga mutolaa qilish uchun Shukrulloning "Kafansiz ko'milganlar" asarini tavsiya qilamiz.

Ma'lumot uchun: "Kafansiz ko'milganlar" – O'zbekiston xalq shoiri va taniqli yozuvchi Shukrullo tomonidan yozilgan avtobiografik asar, 1951-yildagi qatag'onlik davri, Sibir surguni va sho'ro lagerlaridagi azob-uqubatlarni ko'rsatib beruvchi tarixiy asardir. Asar tuhmat bilan qamalgan ziyolilarning fojiali taqdiri, inson ruhiyatining murakkabligi va adolat izlanishi haqida hikoya qiladi.

342 изменено 12:08



Tog' kon sanoati va geologiya vazirligining ma'na...



#mutolaa_zavqi

Hurmatli hamkasblar

Sizlarga mutolaa uchun Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" asarini tavsiya qilamiz.

Ma'lumot uchun: Mahmudxo'ja Behbudiy
"Padarkush" dramasi orqali o'zbek teatriga tamal toshini qo'ydi. Bu asar 1911-yilda yozilgan bo'lib, unda ilmsizlikning qanday fojiali oqibat kasb etishi ifoda etilgan. Drama ilm-ma'rifatni targ'ib qilishda juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Asarda boyning nodon o'g'li Toshmurod yomon odamlar bilan do'st tutinib, o'z uyiga o'g'rilikka tushadi va oqibatda ota qotiliga aylanadi. **Buyuk ma'rifatparvar Behbudiy** shu qisqagina asar orqali xalq ko'zini ochib, ilmning moddiyatdan ustunligini sahnada ko'rsatib beradi.

👁 456 изменено 10:30



**KIMYO-METALLURGIYA FAKULTETI TALABALARINING MUZEYGA EKSKURSIYASI
TASHKIL ETILDI**





Navoiy davlat universiteti Kimyo-metallurgiya fakulteti talabalari ham Navoiy shahridagi “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyiga tashrif buyurdi. Ekskursiya davomida mazkur ilmiy-tadqiqot muassasasi direktori, tarixchi olim Xurshid Qurbonov muzey fondida saqlanayotgan eksponatlar, arxiv hujjatlari va tarixiy manbalar haqida batafsil so‘zlab berdi.

Navoiy davlat universiteti tarkibidagi ushbu muzey faoliyatiga qariyb 10 yil to‘ldi. Bu yerda 4,5 mingdan ortiq eksponat o‘rin olgan. Mazkur dargoh Qizilqum regionida yashab, qatag‘onga uchragan ajdodlarimizning xotirasini abadiylashtirish, yosh avlodga tarixiy haqiqatlarni yetkazish yo‘lida muhim ma’naviy-ma’rifiy maskan bo‘lib kelmoqda.

Talabalar bu yerda ajdodlar xotirasi, yaqin o‘tmishimiz bilan bog‘liq muhim ma’lumotlar va zarur bilimlarga ega bo‘lishdi.



KITOBXONLIKDA RAQOBAT BOR, MAG‘LUBIYAT YO‘Q: “YOSH KITOBXON” TANLOVI G‘OLIBLARI ANIQLANDI

Vazirlik tizimidagi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti talabalari o‘rtasida “Yosh kitobxon” tanlovi o‘tkazilib, unda 9 ta jamoa qatnashdi.

Dastlab, universitet rektori B.Mardonov so‘zga chiqib, barcha kitobxon yoshlarning sa’y-harakatini olqishladi. Shundan so‘ng, “Men yoqtirgan asar” shartiga start berilib, unda ishtirokchi jamoalar sardorlari tanlangan 1 asar bo‘yicha taqdimot qildi. Shundan so‘ng, savol-javob shartida ishtirokchilarning jadid ajdodlarimizning hayoti va ijodi bo‘yicha bilimlari sinaldi.

Hakamlar hay’ati xulosasiga ko‘ra 3-o‘rin “Perezagruzka” jamoasiga, 2-o‘rin “Renessans” jamoasiga, 1-o‘rin esa “Starlight” jamoasiga nasib etdi. G‘oliblarga tanlov tashkilotchilari tomonidan universitet rahbariyatining tashakkurnomalari topshirildi.







Geologiya fanlari universiteti talabalari uchun ma'naviy-ma'rifiy ekskursiya tashkil etildi.



Tadbir doirasida talabalar “Shahidlar xotirasi” maydonining markazida joylashgan “Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi”ga tashrif buyurib, boy ilmiy va madaniy meros, noyob qo‘lyozmalar hamda tarixiy manbalar bilan tanishdilar.

Muzey chor va sovet hokimiyati davrida vatan ozodligi yo‘lidagi faoliyati hamda xatti-harakati uchun qatag‘on etilgan vatandoshlar xotirasini abadiylashtirish maqsadida tashkil qilinganligi haqida axborot berildi. Talabalar Muzeyning ilmiy-tematik ekspozitsiyasi 7 bo‘limdan iborat bo‘lib, XIX asrning o‘rtalarida Turkistonning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi va unga qarshi xalq qo‘zg‘olonlari, Turkiston muxtoriyatining tugatilishi va 20-yillardagi qatag‘on, „Quloqlashtirish“ kompaniyasi (30-yillar), 30-yillardagi qatag‘on, 40–50-yillardagi qatag‘on, 80-yillardagi qatag‘on („Paxta ishi“), Mustaqil O‘zbekistonda qatag‘on qurbonlari xotirasining e‘zozlanishi haqida ma’lumotlarga ega bo‘ldilar.

Shuningdek, ular mustabid tuzum davrida jabrlangan vatandoshlarimiz taqdiri haqida muhim ma’lumotlarga ega bo‘ldilar.

Mazkur ekskursiya talabalarning dunyoqarashini kengaytirish va tarixiy jarayonlarni chuqurroq anglashga xizmat qildi.

Bunday tadbirlar talabalarda vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlash, tarixga hurmat va milliy qadriyatlarga sadoqatni kuchaytirishga xizmat qiladi.



Kon geologiya vazirligi tizimida qatag'onlarni xotirlash va e'zozlash, xalq ozodligi yo'lida qurbon bo'lgan ajdodlarimizning porloq xotirasini tiklash maqsadida yoshlarning ma'naviy va intellektual rivojiga qaratilgan bunday tashabbuslar izchil davom etmoqda.

Vazirning ma'naviy-ma'rifiy ishlar va davlat tili masalalari bo'yicha maslahatchisi



Z. Axmedova